

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**G'ANIYEV SARDOR MURODULLA O'G'LI**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND SIYOSATINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

**08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit**

**iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**G‘aniyev Sardor Murodulla o‘g‘li**

Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini takomillashtirish yo‘llari .....3

**Ганиев Сардор Муродулла угли**

Пути совершенствования дивидендной политики в акционерных обществах.....29

**Ganiyev Sardor Murodulla ugli**

Ways to improve dividend policy in joint-stock companies .....57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**G'ANIYEV SARDOR MURODULLA O'G'LI**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND SIYOSATINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

**08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit**

**iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2195 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Gofurov Doston Boxromovich**

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Karlibaeva Raya Xodjabaevna**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hamdamov Omonullo Ne'matullaevich**

iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239-28-66; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: [ilmiykengash@tsue.uz](mailto:ilmiykengash@tsue.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239-28-66; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: [admin@tsue.uz](mailto:admin@tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.P. Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yirik kompaniyalarning kapitallashuvi allaqachon trillion AQSh dollaridan oshgan. Xususan “2022-yil dekabr oyi boshiga ko‘ra Apple kompaniyasi 2,332 trillion AQSh dollari, Saudi Aramco kompaniyasi 1,887 trillion AQSh dollari, Microsoft kompaniyasi 1,865 trillion AQSh dollari, Alphabet (Google) kompaniyasi 1,289 trillion AQSh dollarilik kapitallashuvga ega”<sup>1</sup>. Bunga kompaniyalarning bir necha o‘n yilliklar davomida muntazam ravishda dividend to‘lab kelayotganligi, bu esa qo‘shimcha aksiyalar emissiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirishga imkon berganligi, aksiyalar orqali arzon moliyaviy resurslar jalb qilish esa innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etganligi kabilar ijobiy ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek kompaniyalar dividend to‘lovlari yuzasidan dividendlar tarixi, kompaniyalar kesimida dividend prognozlar va ularning aksiyalar kurslariga ta‘siri global miqyosda yetakchi reyting agentliklari, auditorlik kompaniyalari va konsalting kompaniyalari tomonidan tahlil qilib borilmoqda. Aynan mazkur jihatlar milliy va xalqaro miqyosda aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Jahon amaliyotidagi ilmiy tadqiqotlarda aksiyadorlik kompaniyalarida dividend siyosati, dividend to‘lovlari tahlillari, investitsion jozibadorlik, dividend to‘lovlari va aksiya kursi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, dividend siyosatining minoritar va majoritar aksiyadorlar moliyaviy holatiga ta‘siri uchun ahamiyati kabilar doimiy diqqat-e‘tibordagi masalalardir. So‘nggi yillarda mustaqil direktorlar va dividend siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, direktorlar kengashida gender tenglikning dividend siyosatiga ta‘siri, dividend to‘lash shakllarining aksiyalar likvidliligiga ta‘sir darajasi, atrof-muhit ifloslanishining dividend siyosatiga ta‘siri, biznes strategiyasida dividend siyosatini hisobga olish, transchegaraviy birlashish va qo‘shib olishlarning dividend siyosatiga ta‘sir darajasini baholash, aksiyalarni muvaffaqiyatli global ommaviy joylashtirishdan so‘ng investorlar bilan moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish yuzasidan dividend siyosatini yuritish kabilar yuzasidan kengroq tadqiqotlar olib borilishi zarurligini anglatadi.

O‘zbekistonda 2026 yil yakuniga qadar “Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 mlrd. AQSh dollariga yetkazish” ustuvor maqsad sifatida belgilangan. Bunga erishish uchun keng miqyosli xususiylashtirishni amalga oshirish, bank aktivlarida xususiy sektor ulushini keskin oshirish kutilmoqda. Lekin buning uchun aksiyadorlik jamiyatlarida dividend to‘lovlarini muntazamlilik asosida amalga oshirish orqali investitsion jozibadorlikni ta‘minlash masalasi muhim bo‘lsada, aksariyat holatlarda e‘tibordan chetda qolmoqda. Ustav kapitalidagi davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari tomonidan erishilgan sof foydaning kamida 50 foizi dividendga yo‘naltirilishi shartligi garchi yillar bo‘yicha davlat

---

<sup>1</sup> www.apple.com, www.aramco.com, www.microsoft.com, www.abc.xyz saytlari ma‘lumotlari asosida dissertant tomonidan tuzildi.

byudjeti to'g'risidagi qonunlarda belgilab qo'yilayotgan bo'lsada, ma'lum bir korxonalariga istisnolar berilayotganligi minoritar aksiyadorlar manfaatlarining ta'minlanmasligiga olib kelmoqda. Shuningdek aksiyalarini ommaviy joylashtirish (IPO, SPO) amaliyotlari yuzasidan tayyorgarlik va amaliyot o'tkazilgach investorlar bilan munosabatlarni dividendlar orqali samarali hamda o'zaro manfaatli tashkil etish masalasi milliy emitentlarning e'tiboridan chetda qolayotganligini ham alohida qayd etib o'tish zarur. Keltirilgan muammolarni hal qilish yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirish va tahlillar o'tkazish dissertatsiya mavzusining dolzarbligini o'zida belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 12-fevraldagi PF-6167-sonli "Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-sonli "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 18-martdagi PQ-168-sonli "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi, unda dividend siyosatini takomillashtirishning ilmiy-nazariy, uslubiy jihatlari, dividend siyosatining kapital bahosiga va fond bozori rivojiga ta'siri muammolari xorijiy va mahalliy olimlarning diqqat-etiboridagi masalalardandir. Xususan Arthur J.Keown, John D.Martin, J.William Petty, Stephen A.Ross, Randolph W.Westerfield, Bradford D.Jordan, P.Mahoney, S.Banner, Jae K.Shim, Joel G.Siegel, A.G.Dementeva, Yu.V.Semernina, A.S.Kozlova, Ye.A.Shamin, O.A.Frolova, O.A.Zubrenkova, G.B.Shagaleeva kabi qator xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida dividend siyosati, uning asosiy tiplari, investitsion jozibadorlik va fond bozori rivojidadagi roli borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga guvoh bo'lish mumkin<sup>2</sup>.

<sup>2</sup> Arthur J. Keown, John D. Martin, J. William Petty. Foundations of finance: the logic and practice of financial management. Tenth Edition. USA: Pearson, 2020. – 548 p.; Stephen A. Ross, Randolph W.Westerfield, Bradford D. Jordan. Fundamentals of Corporate Finance. USA: McGraw Hill, 2022. –1009 p.; Mahoney P. The political economy of the securities act of 1933. UVA Law School, Legal studies working paper.#11. 2000. <http://ssrn.com/abstract=224729>.; Banner S. The origin of the New York stock exchange. Journal of legal studies. 1998. – P.1791-1860; Jae K.Shim, Joel G.Siegel. Financial management. USA. McGraw-Hill, 2007. – 400 p.; Дементьева А.Г. Эволюция корпоративных структур и система корпоративного управления. // Менеджмент сегодня, 2008. - №1. - С.3; Семернина Ю.В., Козлова А.С. Специфические особенности дивидендной политики российских компаний // Управление, Управление, 2016. № 6(64). С. 68-74.; Шамин Е.А., Фролова О.А., Зубренкова О.А. Финансовый менеджмент // Княгинино: НГИЭИ, 2011. С. 162; Шагалеева Г.Б.

Mamlakatimizda esa korporativ moliyada dividend siyosati, aksiyadorlik jamiyatlarida dividend to'lovlari tahlili, dividend siyosatini optimallashtirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari, tijorat banklarida dividend siyosatini takomillashtirish masalalari borasida A.T.Alikulov, R.R.Abduraupov, A.A.Botirov, I.L.Butikov, M.B.Xamidulin, R.X.Karlibaeva, A.K.Taspanova, A.I.Karimov, R.R.Kunarov, N.A.Sherkuzieva, F.T.Muxamedov, X.A.Qurbonov, X.X.Xudoyqulov, A.A.Shomirov, N.T.Po'latov, J.F.Karimov, K.X.Akramov, D.B.Begmatova, U.R.Xalikov, Q.R.Chinqulov, S.E.Elmirzaevlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan<sup>3</sup>.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan investorlar tomonidan emas, balki aksiyadorlik jamiyatlari nuqtai nazaridan dividend siyosatini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirish lozimdir. Bunda ham investitsion jozibadorlik, ham aholi daromadlarini oshirib borish, ham aksiyalar vositasida arzon kapital jalb qilish, ham investorlar manfaatlari va huquqlarini ta'minlash nuqtai nazaridan aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosatini takomillashtirish ham milliy miqyosda, ham ham xalqaro darajada alohida dolzarblik kasb etmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashning ilmiy-metodik asoslari va

---

Особенности дивидендной политики компаний развивающихся рынков капитала. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва, 2011. – 27 с.

<sup>3</sup> Alikulov A.T. O'zbekistonda fond bozori orqali kapital oqimini oshirish. Iqt. fan. bo'y. fal. dok. (PhD)...avtoref. – T.: 2021. – 54 b.; Abduraupov R.R. O'zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalar iqtisodiy salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt. fanl. doktori diss. avtoreferati. – Toshkent, 2016. – 70 b.; Botirov A.A. Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari. // Iqtisod va moliya. Toshkent, 2020. – №3. – B. 15-20.; Butikov I.L. Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане: автореферат дисс...д-ра.э.к. наук. – Т., 2009 г.; Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления: автореферат дисс...д.э.н. – Ташкент, 2008.– с.12.; Karlibaeva R.X., Taspanova A.K. Aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosati // "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda menejment va korporativ boshqaruvning ahamiyati" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent, 2020. – B. 229-235.; Karimov A.I. Aholining bo'sh pul mablag'larini jalb qilish orqali qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish. Iqt. fan. bo'y. fal. dok. (PhD)...avtoref. – T.: 2021. – 60 b.; Kunarov R.R. Tijorat banklari dividend siyosatining tahlili. // Iqtisod va moliya. Toshkent, 2021. – №4. – B. 36-41.; Sherkuzieva N.A. Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini optimallashtirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2021. – B. 56.; Muxamedov F.T. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar savdo tizimlarini takomillashtirish. I.f.n....avtoref. – T., 2012.; Курбанов Х.А. Корпоративные финансы. Учебное пособие. – Т.: Iqtisod-moliya, 2007. –184 с.; 2018.; Xudoyqulov X.X. Aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalar qiymatini baholashning metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. doktori. (DSc)...avtoref. – T., 2021. – 69 b.; Shomirov A.A. Aksiyadorlik jamiyatlar moliyaviy resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari. Iqt. fan. bo'y. fal. dok. (PhD)...avtoref. – T., 2019.; Begmatova D.B. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish. Iqt. fan. bo'y. fal. dok. (PhD)...avtoref. – T., 2017.; Xalikov U.R. O'zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish. Iqt. fan. bo'y. fal. dok. (PhD)...avtoref. – T., 2017.; Chinqulov Q.R. *Aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishni takomillashtirish.* Iqt. fan. bo'y. fal. dok. (PhD)...avtoref. – T.: 2019. – 66 b.; Elmiraev S.E. Elmiraev S. Dividend siyosatining tashkiliy xususiyatlari va takomillashtirish masalalari. // Xalqaro moliya va hisob. – Toshkent, 2016. – №2.; Elmiraev S. Korporativ boshqaruv. Darslik. – T.: Zebo Print, 2022. – 476 b.; Elmiraev S. Korporativ moliya – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 476 b.

usullarini takomillashtirish” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari**

aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi va unda foyda shakllanishi hamda taqsimlanishining nazariy jihatlarini hamda tashkiliy xususiyatlarini tadqiq qilish;

dividendlar taqsimoti va dividend siyosatining konseptual asoslarini o‘rganish va nazariy xulosalar chiqarish;

aksiyadorlik jamiyatlari jozibadorligining asosiy mezonini sifatida dividend siyosatining o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etish;

real sektor korxonalarida foyda taqsimoti, dividend siyosati va dividend to‘lovlari tahlilini amalga oshirish asosida holatni baholash;

tijorat banklarida foyda taqsimoti, dividend siyosati va dividend to‘lovlari tahlili asosida banklar moliyaviy holati va dividend darajasini baholash;

birjalar va sug‘urta kompaniyalarida dividend siyosati hamda dividend to‘lovlari tahlil qilish asosida holatni baholash;

xorijiy aksiyadorlik jamiyatlarining foyda taqsimoti va dividend siyosati amaliyoti tahlil qilish asosida ulardagi ilg‘or tajribalarni O‘zbekistonda qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

dividend siyosatini takomillashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirish masalalariga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ilgari surish.

**Tadqiqotning ob‘ekti** sifatida mamlakatimizdagi tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyati bo‘lgan biznes sub‘ektlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** aksiyadorlik jamiyatlarida sof foyda taqsimoti va dividend siyosati jarayonidagi yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada faoliyat yo‘nalishlari asosida aksiyadorlik jamiyatlarini guruhlash, ekspert baholash, induksiya, deduksiya, davlat ishtirokidagi va xususiy aksiyadorlik jamiyatlarini o‘zaro taqqoslash, iqtisodiy-statistik kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

korporativ boshqaruvning turli modellari uchun xos bo‘lgan agressiv, o‘rtamiyona (mo‘tadil) va konservativ dividend siyosatlarini tanlashda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat barqarorligi davri hamda mulkdorlar tarkibini hisobga olish orqali dividend siyosati samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlarida muntazam dividend siyosati yuritish va kompaniya ustavida sof foydaning dividendga yo‘naltiriladigan me‘yorini qat‘iy belgilab qo‘yish orqali davlat ulushini samarali xususiylashtirish hamda aksiyalarni IPO yoki SPOga muvaffaqiyatli joylashtirishni ta‘minlash taklif etilgan;

aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan muntazam ravishda dividendlar to‘lab borish orqali ijobiy dividend tarixini shakllantirish va e‘lon qilib borish tartibiga o‘tish asosida milliy va xalqaro moliya bozorida investitsion jozibadorlikni ta‘minlash hamda qo‘shimcha emissiyalar bo‘yicha muvaffaqiyatga erishish asoslangan;



ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari bilan birga, xo'jalik boshqaruv organlarining ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida ham sof foydaning kamida 50 foizini dividendga yo'naltirish tartibini joriy qilish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlaridan dividend amaliyotlariga yetarlicha e'tibor qaratilmasligi, minoritar aksiyadorlar manfaatlariga putur yetkazishi tahlillar asosida aniqlangan;

xususiy aksiyadorlik jamiyatlari bozordagi nufuzni oshirib borish nuqtai nazaridan dividend siyosatiga alohida e'tibor qaratishi ularning hamda arzon moliyaviy resurs jalb qilish imkoniyatini oshirishi asoslab berilgan;

xususiylashtirishga tayyorlash muntazam dividendlar to'lab borilishi davlat aksiya paketlari bozor bahosining ortishida ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan;

IPO yoki SPOga chiqishi belgilangan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati bo'yicha strategiyalarni belgilash va ularni amalga oshirish investorlar ishonchining ortishiga xizmat qilishi ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** amalga oshirilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba–sinov ishlari samaradorligining matematik–statistik ishonchlilik intervalida tekshirilganligi, statistik qonuniyatlarda keltirilgan ishonchlilik talablariga javob berishi, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, "Toshkent" Respublika fond birjasi, Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi statistik ma'lumotlariga, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari va xorijiy kompaniyalarning moliyaviy hisobotlari, amaliy ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini ilgari surilgan nazariy xulosalar va ilmiy takliflar aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosati takomillashuviga hamda moliya ilmi ilmiy nazariy boyishiga xizmat qiladi. Shuningdek aksiyadorlik jamiyatlari moliyasiga doir ilmiy tadqiqotlar jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyalar bozori faoliyatiga doir qonunchilik hujjatlari, aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosati bilan bog'liq ichki hujjatlar, xususan ustav, "Dividend siyosati to'g'risida"gi Nizomlar, aksiyadorlar umumiy yig'ilishida foyda taqsimoti bo'yicha qarorlari ishlab chiqilishida foydalanilishi mumkinligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yangi tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan konservativ, faoliyat to'liq yo'lga qo'yilib moliyaviy barqarorlik ta'minlangach o'rtamiyona, bozorda raqobatdoshlik ta'minlangach agressiv dividend siyosatiga o'tish taklifi natijasida, moliyaviy barqarorlikni oshirib borish orqali dividend siyosatini takomillashtirish imkoniyati yaratilgan. (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 3-may 2023-yildagi № 06871-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etish natijasida mamlakatimiz fond bozorida oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash imkonini bergan;

ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari bilan birga xo'jalik boshqaruvi organlarining ulushi ham 50 foizdan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida ham sof foydaning kamida 50 foizini dividendga yo'naltirish tartibini joriy qilish taklifi davlat byudjeti to'g'risidagi qonunchilikda ham o'z ifodasini topgan. (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 3-may 2023-yildagi № 06871-sonli ma'lumotnomasi) davlat byudjetining soliqsiz daromadlari o'sishiga hamda davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligi ortishiga erishilgan. 2021-yil yakunlari bo'yicha davlat ulushi mavjud bo'lgan 10 yirik korxonada 13 275 mlrd so'mlik dividendlarni faqatgina davlat ulushi doirasida davlat byudjetiga to'lab bergan.

aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan dividend tarixini e'lon qilib borish tartibiga o'tish orqali investitsion jozibadorlikni ta'minlash bo'yicha taklifi aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishga va aksiyadorlik jamiyatlarida dividend tarixini shakllanishiga xizmat qiladi. (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 3-may 2023-yildagi № 06871-sonli ma'lumotnomasi) Natijada, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan Dividend siyosati to'g'risidagi Nizomda sof foydadan kamida 50% dividend to'lovlariga yo'naltirilishi me'yori belgilangan, bu esa aksiyalar kursining ijobiy o'zgarishiga, aksiyadorlik jamiyatlariga investorlar qiziqishlarining oshishiga, qo'shimcha mablag'larni jalb etish imkonini bergan;

xususiylashtirishga tayyorlash hamda IPO yoki SPOga chiqishi belgilangan aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirishga tayyorgarlik nuqtai nazaridan muntazam dividend siyosati yuritish va ustavda dividendni qat'iy belgilab qo'yish taklifi amaliyotga joriy etilishi natijasida, xususiylashtirishga tayyorlash hamda IPO yoki SPOga chiqishi belgilangan aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirish uchun investitsion jozibadorlik ta'minlangan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 3-may 2023-yildagi № 06871-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif amaliyotga joriy etilishi natijasida 2021-yil yakuni bo'yicha Navoiy KMK 9955,1 mlrd. so'm, Olmaliq KMK 2445,2 mlrd. so'm, O'zbekneftgaz 240,5 mlrd. so'm, O'zbekiston metallurgiya kombinati 131,3 mlrd. so'mlik dividendlar faqatgina davlat ulushi bo'yicha to'lab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan OAK e'tirof etgan ilmiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek ilmiy-amaliy konferensiyalarda 4 ta ma'ruza va tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, sakkizta paragrafnii o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 111 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, tadqiqotning vazifalari, tadqiqotning ob‘ekti, tadqiqotning predmeti, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Doktorlik dissertatsiyasining **“Aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi va unda foyda taqsimlanishi hamda dividendlarning nazariy jihatlari”** deya nomlangan birinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi va unda foyda shakllanishi hamda taqsimlanishining nazariy jihatlari tadqiq etilgan, dividendlar taqsimoti va dividend siyosatining konseptual asoslari o‘rganilgan, dividend siyosatini aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligining asosiy mezonini yondashgan holda tadqiqot natijalari keltirilgan. Bob yakunida xulosalar shakllantirilgan.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida mulkka egalik qilishning uni boshqarishdan alohidalashuvi yaqqol kuzatilishi bois bitta investor turli yuzlab, minglab aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etishi mumkin. Natijada mayda investorlarning ham aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalar kiritishlari natijasida minoritar aksiyadorlarga aylanish imkoniyati yuqoridir. Boshqa tomondan aynan ochiq aksiyadorlik jamiyatlari tufayli mayda investorlarning bozorga kirib kelish darajasi va faolligi oshib borgan hamda aksiyadorlik jamiyatlarida mas‘uliyati cheklangan jamiyatlariga nisbatan keng doirada kapital jalb qilish imkoniyati ta‘minlangan.

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyasida qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq munosabatlar ham bugungi kunda nihoyatda keng qamrovli ekanligi bilan e‘tiborimizni tortadi. Bunda oddiy va imtiyozli aksiyalar emissiyasi hisobiga ustav kapitalini shakllantirish bilan bevosita bog‘liq munosabatlar birlamchi hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati oddiy aksiyalar chiqarishlari va joylashtirishlari shart. Respublikamizda ustav kapitalining 25 foizi doirasida imtiyozli aksiyalar muomalaga chiqarish va joylashtirish orqali ustav kapitalini shakllantirish huquqiga ega.

Bugungi kun jahon iqtisodiyotidagi keskin raqobat sharoitida moliyaviy munosabatlar doirasi ham, ko‘lami ham kengayib boradi. Mazkur jihatni moliyaviy resurslar jalb qilish, xususan aksiyalar orqali kapital jalb qilish amaliyotlarida ham ko‘rish mumkin. Natijada aksiyalar global miqyosda ochiq yoki ommaviy joylashtirilishi o‘z-o‘zidan aksiyadorlar bilan munosabatlarning global doiraga o‘tishini jadallashtirdi. Bu borada global IPO amaliyotlari ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda. Global miqyosda aksiyadorlar bilan moliyaviy

munosabatlar dividend amaliyotlarining ham global miqyosda amalga oshirilishiga zamin yaratib kelmoqda.

Dividendlar sof foyda hisobidan shakllangan taqsimlanmagan foydaning taqsimlanishi natijasida to'lab beriladi. Korporativ moliyani boshqarishdagi eng muhim jihatlardan biri shubhasiz foydani oqilona taqsimlash orqali aksiyadorlarga dividendlar to'lash amaliyoti bilan bog'liq moliyaviy qarorlar qabul qilishdir. Bu jihat aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosati doirasida ko'rib chiqiladi.

Dividendlar iqtisodiyot miqyosida moliya bozorining muhim tarkibiy qismi hisoblangan aksiyalar bozori taraqqiyotining eng muhim birlamchi omilidir. Boshqa tomondan dividend tarzidagi daromadlar oshib borishi bilan iste'mol bozori doirasining ham kengayishiga xizmat qiladi. Moliyaviy savodxonlik, uni oshirish turli daraja va doiralarda alohida masala sifatida ko'tarilayotgan oxirgi vaqtlarda aynan dividendlar bu muammoni hal qilishning asosiy richagi hamdir. Chunki turli xil moliyaviy piramidalar noqonuniy faoliyat yuritib, moliyaviy savodxonligi yetarli bo'lmagan aholi qismining moliyaviy zarar ko'rishi holatlariga qayta-qayta guvoh bo'layotgan bir vaqtda dividendlarning qonuniy va investitsion jozibadorlikni oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi aholining fond bozoriga kirib kelishiga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida aholining o'z moliyaviy bilimlarini oshirishga rag'bat vazifasini-da o'tab berishini shu o'rinda alohida qayd etib o'tamiz. Shuningdek dividend to'lovlari qanchalik ko'p to'lab borilsa, ulardan hisoblanadigan soliq tushumlari hisobida davlat byudjeti daromadlari bazasi ham mustahkamlanib boradi.

Aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa investitsion jozibadorlikning oshishiga xizmat qiladi. Ya'ni dividendlar qo'shimcha aksiyalar emissiyasini muvaffaqiyatli joylashtirish hamda aksiyalar kursi o'sishini ta'minlash uchun o'ziga xos tekin reklama vazifasini o'tab beradi. Aksiyalar qo'shimcha emissiyasida investitsion jozibadorlik tufayli aksiyalar nominal qiymatdan yuqori narxda joylashtiriladigan bo'lsa, qo'shilgan kapital ham ortishi hisobiga kapital bahosining pasayishi natijasida arzon kapital jalb qilinishiga erishiladi. Mazkur jihat korporativ moliyani boshqarishda samaradorlikni ta'minlovchi muhim mezonlardan biridir. Chunki aksiyalar orqali past bahoda kapital jalb qilinishi, amalga oshiriladigan lohida samaradorligining ortishiga xizmat qiladi. Oxir-oqibat mazkur jihatlar aksiyadorlik jamiyati bozor kapitallashuvining ortib borishini kutish mumkin.

Dividend siyosatiga doir nazariyalarning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Lekin bugungi kunda moliya bozorini rivojlantirish va global investorlar ishonchini qozonish nuqtai nazaridan dividend hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ya'ni bugungi aksiyalar bozori globallik kasb etayotgan bir vaqtda har qanday investor doimiy foyda olishni va uni erkin tasarruf etishni istaydi. Bunda esa aynan dividendlar passiv daromad manbai hisoblansada aksiyalar kursi tebranishiga o'ziga xos signal berish vazifasini ham o'tab beradi. Natijada esa aktiv daromad hisoblangan kursdagi farqdan daromad olish imkoniyatlari ham paydo bo'ladi. Mazkur jihat aksiyadorlik jamiyatlarining nafaqat milliy kapital bozorida, balki global moliya bozorida ham nufuzi oshishiga imkoniyat yaratishini t'kidlashimiz lozim.

Rossiyalik qator iqtisodchi olimlar<sup>4</sup>, shuningdek o'zbekistonlik olimlar<sup>5</sup> dividend siyosati turlarini tadqiq qilishganida agressiv, o'rtamiyona (mo'tadil) va konservativ dividend siyosatlarini ajratib ko'rsatishadi. Mazkur yondashuvlarda ham o'ziga xoslik mavjud, albatta. Xususan, korporativ boshqaruv yoki moliya bozorining anglo-sakson modelida agressiv dividend siyosati yuritiladi. Bu oraqali aksiyadorlik jamiyatlari qo'shimcha aksiyalar emissiyalari orqali faoliyatni moliyalashtirishga keng yo'l ochadilar.

Dividend siyosatini yuritish aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati davriga ham bog'liq. Shuni qayd etishimiz lozimki, yangi tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlari aksariyat holatlarda birdaniga agressiv dividend siyosati yurita olmaydilar. Dastlab konservativ dividend siyosati qo'llashlari, faoliyat to'liq yo'lga qo'yilib, moliyaviy barqarorlik ta'minlangachgina o'rtamiyona dividend siyosatiga o'tishlari, bozorda (moliya bozorida ham) raqobatdosh bo'lgach esa agressiv dividend siyosati qo'llashlari mumkin.

Agressiv, o'rtamiyona yoki konservativ dividend siyosatini tanlash mulkdorlar tarkibiga ham bog'liqlikdir. Agarda iqtisodiyotda davlat ulushi yuqori bo'lsa, davlat bevosita ulush asosida ishtirok etayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida aksariyat holatlarida konservativ dividend siyosati qo'llaniladi. Bu jihat mamlakatimizdagi qator davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida ham kuzatilishini shu o'rinda qayd etib o'tish lozim. Chunki mamlakatimizdagi aksiyadorlik kapitalida davlat ulushi keskin yuqori. Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida konservativ dividend siyosati qo'llanilishiga ikkita asosiy sababni ko'rsatishimiz mumkin. Bular davlatning eng yomon tadbirkor ekanligidan kelib chiqqan holda birinchidan foyda miqdori past bo'lishi, ikkinchidan esa davlat dividend olish orqali manfaatdor bo'lishga har doim ham qiziqavermasligidir. Shu boisdan ham xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish uchun ham muntazam dividend siyosati nihoyatda muhim.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida esa nisbatan agressiv dividend siyosati qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Chunki, xorijiy investor o'z manfaatini ko'zlab investitsiya kiritadi va muntazam daromad olishga hamda olib chiqib ketishga intiladi. Shu boisdan foyda taqsimoti ochiqligi va dividend olishni muntazam talab qiladi.

Dividend to'lovlari xohlaymizmi-yo'qmi aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jaozibadorligini belgilovchi muhim mezonlardandir. dividend siyosati aksiyadorlar, investorlarning aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga va istiqboliga ishonch vositasi bo'lib xizmat qiladi. Aks holda moliyalashtirishni diversifikatsiyalash imkoniyatlarini pasayishi, nazorat qo'ldan chiqishi ehtimollari mavjud. Boshqa tomondan erishilgan butun sof foydani dividend sifatida to'lab yuborish ham xato. Chunki bunday moliyaviy qaror qabul qilish va amalga

<sup>4</sup> Семернина Ю.В., Козлова А.С. Специфические особенности дивидендной политики российских компаний // Управленец, Управленец, 2016. № 6(64). С. 68-74.; Шамин Е.А., Фролова О.А., Зубренкова О.А. Финансовый менеджмент // Княгинино: НГИЭИ, 2011. С. 162.

<sup>5</sup> R.X.Karlibaeva, A.K.Taspanova, Aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosati // "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda menejment va korporativ boshqaruvning ahamiyati" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent, 2020. B. – 229-235.; Sherkuzieva N.A. Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini optimallashtirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2021. – B.

o'shish aylanma mablag'larning chiqib ketishi natijasida likvidlilik va to'lovga qobiliyatlilikni keskin pasaytirib yuborishi mumkin. Natijada esa aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligi pasayishi kuzatiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosati ko'p omilli funktsiya, ya'ni ko'plab omillar ta'sirida yurituvchi siyosat hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosati ko'p omilli funktsiya, ya'ni ko'plab omillar ta'sirida yurituvchi siyosat hisoblanadi. Bu borada Jae K.Shim, Joel G. Siegel kompaniyaning o'sish sur'ati, cheklovchi shartnomalar, daromadlilik, daromad barqarorligi, nazoratni ta'minlash, moliyaviy leverej darajasi, tashqi tomondan moliyalashtirish qobiliyati, noaniqlik, moliyaviy leverej darajasi, faoliyat davomiyligi va ko'lami, soliq jarimalari kabi o'nta omilni alohida sanab o'tadi<sup>6</sup>.

Dividend siyosatiga ta'sir etuvchi omillar haqiqatdan ham ko'p qirralidir. Bunda muntazam dividend to'lovlari biznes nufuzi yuksalishiga va investorlar ishonchi ortib borishi hisobiga aksiyalar kotirovkasida o'sish berishini kutish mumkin. Bu esa aksiyalar hisobiga arzon kapital jalb qilish va qo'shilgan kapital hajmini oshirib borish mumkin. Dividend to'lovlariga jiddiy e'tibor qaratmaslik natijasida aksiyadorlar bilan munosabatlarning yaxshi yo'lga qo'yilmasligi aksiyalar bozor narxining qulashiga va oxir oqibat bankrotlikka ham sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa aksiyalari ommaviy joylashtirilgan aksiyadorlik jamiyatlari ommaviy joylashtirishdan keyingi bosqich sifatida aksiyadorlar va investorlar bilan ham manfaatdorlik, ham ochiqlik yuzasidan moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish shart, deb hisoblaymiz.

Kompaniyalar sof foydani taqsimlash nuqtai nazaridan ikkita jihatdan birini tanlashlariga to'g'ri keladi. Bular sof foydaning katta qismini dividendga yo'naltirish va kamroq qismini kompaniya ixtiyorida qoldirishi yoki katta qismini kompaniya ixtiyorida qoldirish va kamroq dividend to'lashdir. Har ikkala holatning ham o'ziga xos kamchilik va afzalliklari mavjud.

Ikkita muqobil variantdan birini tanlash aksiyadorlik jamiyatlarining bozordagi nufuzi yoki faolligi, shuningdek qo'shib olinishlardan himoyalanganlik darajasiga ham bevosita bog'liq. Agarda moliya bozoridagi faollik va nufuz yuqori darajada bo'lsa aksiyadorlik jamiyati o'z-o'zidan birinchi yo'lni tanlaydi. Ya'ni yuqori dividendlar to'lash orqali erishilgan sof foydaning kamroq qismini o'zida saqlab qoladi. Bu orqali qo'shimcha aksiyalarni nominaldan keskin yuqori joylashtirish natijasida arzon tashqi moliyalashtirishdan faol foydalanadi. Aksincha qo'shib olinishdan himoyalangan, bozordagi faollik nisbatan past holatda esa erishilgan sof foydaning kamroq qismini dividendga yo'naltirish orqali qolgan qismini reinvestitsiyaga yo'naltirish tipidagi aksiyadorlik jamiyatlari ham mavjud. Lekin bu jihat ular uchun uchun vaqtinchalik ahamiyat kasb etgandagina ahamiyatli bo'lishi mumkin. Aks holatda bunday aksiyadorlik jamiyatlari qo'shimcha aksiyalar emissiyasi orqali arzon tashqi moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyati o'zlari chegaralab qo'yadilar.

Umuman olganda dividendga yo'naltirilgan summaning erishilgan sof foydaga nisbati aksiyadorlar, investorlar doimiy diqqat e'tiboridagi masala ekanligini alohida ta'kidlashimiz lozim. Bunda moliyaviy hisobot davrlari bo'yicha

---

<sup>6</sup> Jae K.Shim, Joel G.Siegel. Financial management. USA. McGraw-Hill, 2007. – P. 339.

bozor daromadlilikidan kelib chiqqan holda dividend barqarorligi va sof foyda asosida muntazam o'sib borishi bugungi keskin raqobat sharoitida o'ta muhimdir. Bu jihat aksiyadorlik jamiyatlarining global moliya bozorlariga chiqishda ham o'ziga asos vazifasini o'taydi. Shuni qayd etishimiz kerakki, muntazam dividend to'lovlari aksiyadorlik jamiyatlarining o'z faoliyatlarini moliyalashtirish strategiyasi bilan bevosita bog'liq.

Manfaatlar qarama-qarshiligi, foydani taqsimlashda aksiyadorlar va yollanma menejment manfaatlari to'qnashuvi bir qarashda tabiiy holatdek namoyon bo'ladi. Lekin bunda manfaatlar muvozanatini ta'minlay olmaslik foyda taqsimoti bilan bog'liq korporativ nizolarning avj olishiga olib keladi va investitsion jozibadorlikning pasayishiga sabab bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyatida xususiy aksiyadorlar ulushi yuqori bo'lib, sof korporativ moliyaviy boshqaruv amal qilsa, bunday holatda yollanma menejment bilan manfaatlar qarama-qarshiligi shartnomalar nazariyasi orqali tartibga solinadi. Bu jihatlarda o'z navbatida foyda taqsimoti va investitsion jozibadorlik ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini fond birjasidagi listing toifasi ham o'zida namoyon qiladi. Boshqa tomondan fond birjasining o'zini-o'zi tartibga solish bo'yicha listing talablarining qo'yilishi ham bejiz emas. "Toshkent" respublika fond birjasining Premium toifasidagi listing talablariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, dividendlar to'lash barqarorligi alohida talab sifatida qo'yilgan va bunda oxirgi uch moliya yili kuni bo'yicha sof foydaning kamida 30 foizi dividendga yo'naltirilgan bo'lishi shart hamda keyingi yillarda ham bu talabga doimiy rioya qilishi shart hisoblanadi. Mazkur jihat o'z-o'zidan investorlar ishonchiga ham xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Tarmoqlar va sohalar kesimida aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosati hamda dividend to'lovlari tahlili**", deya nomlanib, unda real sektor korxonalarining, tijorat banklari, birjalar va sug'urta kompaniyalarining foyda taqsimoti, dividend siyosati va dividend to'lovlari tahlil qilingan. Tahlillar asosida davlat ishtirokidagi va xususiy aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati farqli jihatlari aniqlangan holda xulosalar keltirilgan.

O'zbekneftgaz aksiyadorlik jamiyati aksiyasi nominal qiymati 500 so'm. 21 243 473,35 million so'mlik ustav kapitalining 99,94 foizi oddiy aksiyalar hisobiga shakllangan bo'lib, to'liq davlat nazoratida va davlat nomidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi egalik qiladi. 0,06 foiz aksiyalar imtiyozli aksiyalar bo'lib, ularga 57703 nafar jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan 177 nafar xorijiy investorlar egalik qiladi. Oxirgi yillarda erishilgan sof foyda va uning dividendlarga yo'naltirilishi quyidagicha (1-jadval).

Keltirilgan jadvaldan ayon bo'lmoqdaki, O'zbekneftgaz aksiyadorlik jamiyatining sof foydasi 2021-yilda 2018-yilga nisbatan 9,8 baravar yuqori bo'lgan. Garchi 2021-yil yakuni bo'yicha sof foydaning 35 foizi dividendlarga yo'naltirilgan bo'lsada, oddiy aksiyalar bo'yicha yuqori ko'rsatkichni ta'minlagan. Lekin shunda ham oddiy aksiyalar bo'yicha dividend nominal qiymatga nisbatan 6 foizga yetmagan. Bu holat asosiy aksiyador davlat, xususan O'zbekiston Moliya vazirligi bo'lgan boshqa aksiyadorlik jamiyatlaridagiga o'xshash holatdir.

Imtiyozli aksiyalar bo'yicha esa 2018-2019-yillar yakunlari bo'yicha nominal qiymatga nisbatan 50 foiz, 2020-2021-yillar yakunlari bo'yicha esa 20 foizdan dividend to'lab berilgan. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend siyosati va amaliyotini mazkur ko'rsatkichlar asosida ijobiy baholash mumkin.

### 1-jadval

#### O'zbekneftegaz aksiyadorlik jamiyati 2018-2021-yillar yakunlari bo'yicha sof foydasi va uning dividendlarga yo'naltirilishi tahlili<sup>7</sup>

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
Sof foyda, mln so'mda	348 821,7	127 716,8	460 111,2	3 424 982,2
Sof foydaning dividendga yo'naltirilgan qismi, foizda	50	95	86	35
Bitta oddiy aksiyaga to'langan dividend, so'mda	12,10	8,28	5,98	27,89
Oddiy aksiya nominaliga nisbatan foizda	2,42	1,66	1,2	5,58
Bitta imtiyozli aksiyaga to'langan dividend, so'mda	250	250	125	125
Imtiyozli aksiya nominaliga nisbatan foizda	50	50	20	20

Oxirgi yillarda Xalqaro moliya korporatsiyasi ko'magida transformatsiya qilinayotgan va xususiylashtirishsha tayyorlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan tijorat banklaridan biri bu aksiyadorlik tijorat ipoteka bank "Ipotekabank"dir. Ipotekabankning o'z faoliyati davomida hisoblagan va to'lab berilgan dividendlari aksiyalar kesmida quyidagicha (2-jadval).

### 2-jadval

#### Ipotekabankning 2005-2021-yillar uchun hisoblangan va to'lab berilgan dividendlari<sup>8</sup>

Yillar	To'lab berilgan yillar	Hisoblangan va to'lab berilgan dividendlar pul ko'rinishida				Hisoblangan dividendlar kapitalizatsiya ko'rinishida		Jami olingan daromad		Aksiya nominal qiymati
		Oddiy aksiyaga		Imtiyozli aksiyaga		1 dona aksiyaga		Oddiy aksiya	Imtiyozli aksiya	
		1 dona aksiyaga								
		%	so'm	%	so'm	%	so'm	%	%	
2015*	2016	1,5	54,00	25	894,50	12,5	448*	14	37,5	3 578
2016	2017	8	0,08	25	0,25	-		8	25	1
2017	2018	6	0,06	25	0,25	-		6	25	1
2018	2019	8	0,08	25	0,25	-		8	25	1
2019	2020	-	-	25	0,25	-		-	25	1
2020	2021	-	-	25	0,25	-		-	25	1
2021	2022	-	-	25	0,25	-		-	25	1

Ipotekabank muntazam ravishda dividend to'lovlariga e'tibor qaratib kelmoqda. Bunda ham pul shaklidagi dividendlar to'lab berilgan, ham aksiyalar ko'rinishida dividendlar to'langanligiga guvoh bo'lish mumkin. 2015-2020-yillar

<sup>7</sup> <https://ung.uz/shareholders/dividends>

<sup>8</sup> [https://www.ipotekabank.uz/uz/investors/shai\\_sharad/](https://www.ipotekabank.uz/uz/investors/shai_sharad/) 2005-2021-yillar uchun hisoblangan va to'lab berilgan dividendlar tarixi.pdf



yakunlari bo'yicha esa 25 foizdan pul shaklda dividend imtiyozli aksiyalar egalariga to'langan. Oddiy aksiyalar bo'yicha esa da yil yakunlariga muvofiq nominalga nisbatan 2016-yil 8 foiz, 2017-yil 6 foiz, 2018-yil 8 foiz dividendlar to'lab berilgan. 2010-2012-yillar hamda 2015-yil yakunlari bo'yicha ham pul shaklda, ham aksiya shaklida dividendlar to'lab berilgan. Unda oddiy aksiyalar bo'yicha 1,5 foiz pul shaklida va 12,5 foiz aksiya ko'rinishida dividend to'lab berilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Mazkur dividendlar 2017-yil 29-maydagi bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining 2015 yildagi bank moliyaviy natijalari asosida aksiyalarni maydalash va qo'shimcha emissiya qilish orqali kapitallashuvni amalga oshirish, bunda har 3578 dona aksiyaga 448 ta qo'shimcha qo'shib berish to'g'risidagi qaroriga asosan amalga oshirilgan. 2010-2015-yillar yakunlari bo'yicha aksiyalar ko'rinishida dividend to'lash aksiyalar nominal qiymatini oshirish orqali amalga oshirilganligini ham shu o'rinda alohida ta'kidlashimiz lozim. Bunday amaliyot 2016-yildan amaldagi qonunchilikka ko'ra ta'qiqlangan.

2016-2018-yillar yakunlarida bu ko'rsatkich nisbatan bo'lgan holatda 2019-2021-yillar yakunlarida oddiy aksiyalar egalariga hech qanday dividend to'lanmaganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu tendensiya 2021-yil yakuni bo'yicha ham davom etgan. Ya'ni, 2021-yil yakuni bo'yicha oddiy aksiyalar egalari hech qanday dividend to'lanmagan, imtiyozli aksiyalar bo'yicha esa ustavda qat'iy belgilangan 25 foizlik dividend to'lab berilgan.

2021-yil yakunlari bo'yicha foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotiga ko'ra bank 693 720 240 ming so'm sof foyda ko'rgan va 2022-yil 30-iyundagi "Ipoteka-bank" ATIB aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi bayoniga ko'ra 2021-yil sof foydasining 20 foizlik qismi umumiy zaxira fondiga yo'naltirilgan. Qolgan 80 foizlik qismi esa taqsimlanmagan foyda sifatida qoldirilgan. Bunda Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi a'zolarini rag'batlantirish bo'yicha xarajatlar 2022-yil bo'yicha joriy xarajatlarga kiritilgan. 2020-2021-yillar yakunlari bo'yicha 2,013 mlrd. so'mlik imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar umumiy zaxira fondidan to'lab berilgan. 2019-yil yakuni bo'yicha esa bu summa sof foyda hisobidan to'lab berilgan. Garchi 2019-yil yakunlari bo'yicha aksiyadorlar yillik umumiy yig'ilishida 52,26 foiz sof foyda oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarga yo'naltirilishi hamda har bir oddiy aksiyaga 8 tiyindan dividend to'lanishi bo'yicha qaror qabul qilingan bo'lsada, bu dividend amalda to'lanmagan hamda taqsimlanmagan foydada qoldirilgan. Oxirgi yillardagi oddiy aksiyalar bo'yicha dividend to'lanmaganligi, yil yakunlari bo'yicha taqsimlanmagan foydadagi qoldiqning yig'ilib borishi hamda 2022-yil 1-chorak yakunlari bo'yicha sof foyda natijasida "2022-yil 1-aprel holatiga bankning taqsimlanmagan foydasi qariyb 1,497 trillion so'mni tashkil etmoqda"<sup>9</sup>.

Oxirgi yillarda ham milliy, ham xalqaro moliya bozorida ancha faol bo'lgan yana bir tijorat banki Sanoatqurilishbank aksiyadorlik tijorat bankidir. Bankda ham

---

<sup>9</sup> <https://www.ipotekabank.uz>

to'g'ridan-to'g'ri davlat ulushi qariyb 95 foiz. Shunga qaramasdan bank sof foydasi yildan-yilga oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

### 3-jadval

#### Sanoatqurilishbankning 2017-2021-yillar yakunlari bo'yicha sof foydasi va uning dividendga yo'naltirilgan qismi, million so'mda<sup>10</sup>

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2021-yil 2017-yilga nisbatan farq
Sof foyda	85 707.90	236884.10	704525.96	798245.94	993 037.82	+907329,92
Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlarga	1 616.9	1 616.9	1 616.9	1 616.9	1 616.9	0
Oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarga	28 896.30	71 350.20	353 150.08	0,0	0,0	- 28 896.30

Sanoatqurilishbank sof foydasi oxirgi 5 yilda qariyb 11,6 baravarga oshgan bo'lishiga qaramasdan dividend to'lovlari darajasi yuqori, deya olmaymiz. 2017-2021-yillar yakunlari bo'yicha imtiyozli aksiyalarga to'langan dividend miqdori o'zgarmagan. Buni amaldagi qonunchilik talabi asosida bank ustavida imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend qat'iy belgilab qo'yilganligi bilan izohlashimiz mumkin va yillar davomida aksiya nominaliga nisbatan 23 foizdan dividend to'lab kelinmoqda. Boshqa tomondan tahlil qilinayotgan davrda imtiyozli aksiyalar qo'shimcha emissiya qilinmagan.

Oddiy aksiyalar bo'yicha esa 2019-yil yakunlariga asosan bank sof foydasining 50 foizidan ortiq qismi oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarga yo'naltirilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shunda ham bitta aksiya bo'yicha dividend nominalga nisbatan 7,6 foizni tashkil etgan xolos. Bu ko'rsatkich bozor daromadligiga nisbatan keskin pastligi haqiqat. Lekin 2020-2021-yillar yakunlari bo'yicha oddiy aksiyalar egalari hech qanday dividend to'lanmagan. Vaholanki foyda darajasi keskin o'sganligini yuqorida alohida qayd etib o'tdik. Bunda sof foydaning ma'lum bir qismlari umumiy zaxira fondiga, standart kredit bo'yicha zaxiraga, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'zolarini rag'batlantirishga yo'naltirilgandan so'ng, qolgan qismi taqsimlanmagan foydada qoldirilmoqda. 2021-yil yakunlari bo'yicha foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotiga ko'ra 999,19 mlrd. so'mlik bankning taqsimlanmagan foydasi mavjud hamda aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra 941,72 mlrd. so'm sof foyda taqsimlanmagan foydada qoldirilgan.

Umuman davlat ishtirokidagi banklarda ham umumiy xususiyatlardan biri, shubhasiz dividend to'lashga ustuvor darajada e'tibor qaratilmaganligini alohida qayd etib o'tishimiz lozim. Mazkur jihat davlatning har doim ham dividendga intilmasligidan namoyon bo'ladi.

Trastbank XATBda biror bir shaxsning ulushi 50 foizdan ortiq emas, ya'ni hech bir aksiyador nazorat paketiga egalik qilmaydi va hal qiluvchi ovozga ega

<sup>10</sup> <https://sqb.uz/uz/for-investors/distribution-banks-profit-uz/> va bankning 2021-yil yakunlari bo'yicha yillik umumiy yig'ilishi qarori asosida dissertant tomonidan tuzildi.

emas. Mazkur jihat bankda, umuman har qanday aksiyadorlik jamiyatida manfaatlar qarama-qarshiligi asosida sof korpo-rativ boshqaruv amalishida alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Tahlil qilib chiqilgan aksiyadorlik jamiyatlarida esa asosiy aksiyalar (90 foizdan ortiq) paketi davlat egaligida bo‘lganligi bois sof korporativ boshqaruv amal qilmoqda, deya olmaymiz. Natijada dividendlarga e‘tibor juda ham past darajada. Trastbankda esa sof korporativ boshqaruv tufayli natijaga yo‘naltirilgan faoliyat va aksiyadorlar manfaatdorligiga ham ustuvor darajada e‘tibor qaratilgan (4-jadval).

#### 4-jadval

#### Trastbank XATB aksiyalari nominaliga nisbatan hisoblangan va to‘langan dividendlar tahlili<sup>11</sup>

Ko‘rsatkichlar	2019-yil davomida	2020-yil davomida	2021-yil davomida
<b>Oddiy aksiyalar bo‘yicha, nominalga nisbatan foizda</b>	<b>61,3</b>	<b>101,4</b>	<b>25,0</b>
- hisoblangan va to‘langan dividendlar miqdori (mln. so‘m)	98 219,15	228 380,18	90 056,75
<b>Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha, nominalga nisbatan foizda:</b>	<b>15</b>	<b>15</b>	<b>15</b>
- hisoblangan va to‘langan dividendlar miqdori (mln. so‘m)	3,45	3,45	3,45

Trastbankda oddiy aksiyalar bo‘yicha to‘lab berilgan dividendlar nominalga nisbatan keskin tebranuvchanlikka ega bo‘lsada, amalda investorni qanoatlantiradigan darajada ekanligini ta‘kidlashimiz lozim. Oddiy aksiya nominaliga nisbatan 2019-yil bo‘yicha 61,3 foiz, 2020-yil davomida esa 101,4 foiz dividend to‘langanligi keskin yuqori dividend to‘lab berilganligidan dalolat beradi. Hatto 2021-yilda 25 foiz to‘lab berilganligi ham bozor daromadliligidan yuqori daromad to‘langanligini ko‘rsatadi.

Sug‘urta kompaniyalarida dividend to‘lovlarini tahlil qilib chiqsak. «Kafolat» sug‘urta kompaniyasi 1 so‘mlik va “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyatining 3280 so‘mlik nominal qiymatga ega aksiyalari bo‘yicha 2016-2020-yillar yakunlariga ko‘ra dividend amaliyotlari quyidagicha kuzatilgan (5-jadval).

Kafolat sug‘urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2019-yil yakuni bo‘yicha oddiy aksiyalar egalariga nisbatan yuqori 16,37 foiz dividend to‘langan. Tahlil qilingan davrdagi boshqa yillar yakunlari bo‘yicha esa asosan 2,6-6 foiz doirasida dividend to‘langan. O‘zagrosug‘urta aksiyadorlik jamiyati oddiy aksiyalar bo‘yicha oxirgi marta 2015 yil yakuni bo‘yicha nominalga nisbatan 5,26 foiz, ya‘ni 172,5 so‘mdan dividend to‘lagan<sup>12</sup>. 2016-2021-yillar yakunlari o‘yicha esa oddiy aksiyalar egalariga dividend to‘lash to‘risida qaror qabul qilinmagan. Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha esa muntazam ravishda yillik 25 foiz, ya‘ni 820 so‘mdan dividend to‘lab kelinmoqda. Tahlil qilingan davrda har ikkala aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalida davlat ulushi yuqori bo‘lgan.

<sup>11</sup> <https://trastbank.uz/uz/shareholders/distribution-of-profits/dividends/>

<sup>12</sup> <http://www.openinfo.uz/uz/facts/3188/>

**“Kafolat” SK va “O‘zagrosug‘urta” AJlar tomonidan 2016-2021-yillar yakunlari bo‘yicha bitta aksiya nominal qiymatiga nisbatan dividendlar tahlili<sup>13</sup>**

Yil yakunlari	Aksiyalar turi	Kafolat SK AJ		O‘zagrosug‘urta	
		Foizda	So‘mda	Foizda	So‘mda
2016	Oddiy	5	0,05	0	0
	Imtiyozli	25	0,25	25	820
2017	Oddiy	6	0,06	0	0
	Imtiyozli	25	0,25	25	820
2018	Oddiy	4	0,04	0	0
	Imtiyozli	25	0,25	25	820
2019	Oddiy	16,37	0,16	0	0
	Imtiyozli	25	0,25	25	820
2020	Oddiy	2,6	0,026	0	0
	Imtiyozli	25	0,25	25	820
2021	Oddiy	2,6	0,026	0	0
	Imtiyozli	25	0,25	25	820

Sug‘urta kompaniyalari dividend amaliyotlari tahlilidan ham ko‘rishimiz mumkinki, xususiy aksiyadorlik jamiyati hisoblangan Alskom sug‘urta kompaniyasida dividendlar bo‘yicha moliyaviy qarorlar aksiyadorlar manfaatlarini hisobga olgan holda qabul qilinib kelinmoqda. Davlat ishtirokidagi sug‘urta kompaniyalarida esa tijorat banklarida bo‘lgani kabi dividend ancha keyingi darajadagi masalalardan biridir.

2022-yil 23 fevraldan boshlab barcha sug‘urta kompaniyalari aksiyadorlik jamiyatiga aylangach hamda sug‘urta bozorida raqobat muhiti nisbatan mavjudligi bois, yaqin istiqbolda barcha sug‘urta kompaniyalari ham sug‘urta bozorida, ham fond bozorida faollik ko‘rsatishini kutishimiz mumkin. Chunki xususiy sektordagi sug‘urta kompaniyalari bu borada fond bozori orqali kapital jalb qilish hamda faoliyatini kengaytirishga intilishi tabiiy holat hisoblanadi. Bu jarayonda dividendlarga jiddiy e‘tibor esa moliya bozoridagi ustuvorlikka xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“Dividend siyosatini takomillashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirish yo‘llari”**, deya nomlanib, unda xorijiy aksiyadorlik jamiyatlarining foyda taqsimoti va dividend siyosati amaliyoti tahlil qilingan, dividend siyosatini takomillashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirish masalalariga e‘tibor qaratilgan. Bob yakunida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Xalqaro amaliyotda pul shaklida qo‘llanib kelinayotgan va to‘lanayotgan dividendlarning to‘rtta asosiy tipi ajratib ko‘rsatiladi. Ular “muntazam pul dividendlari, qo‘shimcha dividendlar, maxsus dividendlar va likvidatsiya dividendlaridir”<sup>14</sup>. Xalqaro amaliyotda dividend to‘lov shakllari nuqtai nazaridan kompaniyalar nafaqat naqd pul mablag‘laridan, balki aksiyalar ko‘rinishida to‘lash,

<sup>13</sup> Openinfo.uz – Korporativ axborotlar yagona portalida “Kafolat” SK va “O‘zagrosug‘urta” AJlar tomonidan e‘lon qilingan 32-muhim faktlar asosida dissertant tomonidan tuzildi.

<sup>14</sup> Stephen A. Ross, Randolph W. Westerfield, Bradford D. Jordan. Fundamentals of Corporate Finance. USA: McGraw Hill, 2022. – P. 581 (1009)

aksiyalar maydalash orqali mayda investorlar talabini oshirish natijasida dividend siyosati yuritish, aksiyalarni qayta sotib olish haqida e'lon berish natijasida bozorga ijobiy signal berish orqali ham dividend siyosatini amalga oshiradilar. Bunda naqd pulda dividend to'langach, aksiya kursida pasayish yuz beradi. Aksiyalarni maydalash va aksiyalarni qaytarib sotib olish borasida qarorlar qabul qilinganda aksiyalar kursi oshadi. Natijada aksiyadorlar dividend sifatida emas, aksiya kursidagi ijobiy farqdan daromad oladilar.

Coca-Cola kompaniyasi dividendlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, avvalo dividend to'lovlari muntazamligi e'tiborimizni tortadi. 1987 yil ikkinchi choragi yakunidan to 2023-yil birinchi choragi yakuniga qadar Coca-Cola kompaniyasi tomonidan muntazam ravishda har chorak bo'yicha dividend to'langanligini yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin. Bunda har bir aksiya bo'yicha dividend miqdori 2011 yil to'rtinchi chorak va 2012 yil birinchi choragi bo'yicha eng yuqori 0,51 AQSh dollarini tashkil etgan. Eng past dividend esa 1996 yil uchta chorak yakuni bo'yicha 0,125 AQSh dollaridan to'lab berilgan.

Apple kompaniyasi tomonidan ham muntazam dividendlarga ustuvor darajada e'tibor qaratilib kelinmoqda. Buni 1987 yil birinchi chorak yakunidan to 2023-yil birinchi chorak yakuniga qadar amalga oshirilgan dividend to'lovlari tahlillari ko'rsatib turibdi. Shuningdek kompaniya 35 yillik dividend tarixida aksiyalarni maydalash orqali ham dividend amaliyotlariga 5 marotaba murojaat qilinganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Tahlil qilingan Coca-cola va Apple kompaniyalari dividend tarixidan ko'rinib turibdiki har ikkalasida ham har chorak bo'yicha muntazam dividendlar pul mablag'larida to'lanishi ustuvorlik qiladi. Mazkur jihat moliya bozorining anglo-sakson modeliga xos xususiyat ekanligini shu o'rinda alohida qayd etib o'tishimiz lozim. Shuningdek mazkur modelda axborot ochiqligi bo'yicha ham qat'iy shartlar amal qiladi va moliya hisobotlar, tahliliy sharhlar har chorakda e'lon qilib boriladi. Axborot ochiqligi bo'yicha o'ta qat'iy talabning amal qilishi va har chorak yakuni bo'yicha dividend to'lash o'z-o'zidan mazkur kompaniyalarga tekin reklama vazifasini ham o'tab beradi. Shuningdek mazkur dividend tahlillari har ikkala kompaniyada ham 35 yil bo'yicha berilayotganligi dividend tarixining shakllanishiga xizmat qilganligini ham alohida qayd etib o'tishimiz lozim.

Moliya bozorida va jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan yapon kompaniyalari dividend tahlili nuqtai nazaridan Toyota kompaniyasi dividendlariga e'tibor qaratsak, kompaniyaning 2009-2022-yillardagi dividend tahlillari kompaniya tomonidan har olti oylik hisobot davri asosida dividend to'lovlari amalga oshirilganligini ko'rsatmoqda. Va bu tartibga qat'iy ravishda amal qilinganligi ham e'tiborlidir. Bunday eng yuqori dividend 2020-yil ikkinchi chorak yakuni bo'yicha 2,45 AQSh dollarini tashkil etgan. Jahon avtomobilsozlik sanoatida o'z o'rniga ega bo'lgan Mercedes-Benz Group dividend to'lovlari moliya yili yakunlari bo'yicha amalga oshirilganligi yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ayon bo'lmoqda. Eng yuqori dividend 2021-yil yakuni bo'yicha 2022-yil 4 mayda har bir aksiya bo'yicha 5 yevrodan to'langanligi ham ahamiyatlidir. Mazkur holatda ham dividendlarni muntazam dividendlar sifatida e'tirof etish mumkin.

Xorijiy kompaniyalarning muntazam dividendlarni to'lab borishga alohida e'tibor qaratishi faoliyat yuritayotgan mamlakatlarda fond bozorining ham faol

rivojlanishiga xizmat qilgan. Aynan mazkur jihatdan kelib chiqqan holda mamlakatlar, xususan respublikamizda ham muntazam dividendlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining rivojlanib borishi va global bozorda o'z nufuziga ega bo'lishlari ko'p jihatdan ularning global raqobatdoshligiga bevosita bog'liq. Buning uchun esa aksiyadorlik jamiyatlari moliyasini, xususan moliyaviy ta'minotini takomillashtirib borish talab etiladi. Xalqaro amaliyotda asrlar davomida aksiyalar arzon moliyaviy resurs sifatida namoyon bo'lib kelayotgan bir vaqtda mamlakatimizda bu imkoniyatdan yetarlicha foydalanib kelinmoqda, deya olmaymiz. Dividend siyosatining takomillashmaganligi buning asosiy sabablaridan biri ekanligini shu o'rinda alohida qayd etib o'tishimiz lozim.

So'nggi yillarda davlat byudjeti daromadlari sifatida davlat ishtirokidagi korxonalaridan dividendlar va davlat korxonalari sof foydasidan ajratmalar tushumini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining moliya yillari uchun davlat byudjeti to'g'risidagi qonunlarida ham dividend masalasi alohida belgilab qo'yilmoqda (6-jadval).

## 6-jadval

### 2019-2021-yillar yakunlari bo'yicha davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud yuridik shaxslar sof foydasi taqsimoti tartibi<sup>15</sup>

Korxonalar toifasi	Dividend to'lash davri va sof foydaning dividendga yo'naltiriladigan qismi	Ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlarni davlat byudjetiga o'tkazish tartibi
Davlat unitar korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo'lgan jamiyatlar	2019-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda	2020-yilning 1 iyuliga qadar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tegishli ravishda ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2020-yilning 1 sentabridan kechiktirmasdan tegishli darajadagi byudjetlarga o'tkaziladi.
Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar	2020-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda	2021-yilning 1 iyuliga qadar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tegishli ravishda ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2021-yilning 1 sentabridan kechiktirmasdan tegishli darajadagi byudjetlarga o'tkaziladi.
Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar	2021-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorida, oltin qazib oluvchi korxonalar tomonidan esa 100 foizi miqdorida	2022-yilning 1 iyuliga qadar ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2022-yilning 1 sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o'tkaziladi.

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasining 09.12.2019 yildagi O'RQ-589-son, 25.12.2020 yildagi O'RQ-657-son, 30.12.2021-yildagi O'RQ-742-son Qonunlari.

2021-yil yakuni bo'yicha sof foyda taqsimoti nuqtai nazaridan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat korxonalarini va davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek ularning tarkibidagi sho'ba korxonalar tomonidan dividendlar yoki sof foydadan ajratmalar to'lash miqdorlari va davriyligini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashga haqli"<sup>16</sup>, ekanligi ham qonunchilikda aks ettirildi. Lekin bunda sho'ba korxonalar tomonidan ham sof foydaning kamida 50 foizini dividendga yo'naltirish ular investitsion jozibadorligi ortishiga xizmat qiladi. Shuningdek, iqtisodiyotda davlat ishtiroki yuqori bo'lgan bir vaqtda dividendlar bo'yicha bunday normalarning o'rnatilishi keng ko'lamli xususiylashtirish amaliyotlarining samarali kechishiga xizmat qiladi.

Uzviylikni ta'minlash ta'minlash maqsadida xususiylashtirish amaliyotlaridagi samaradorlikni ta'minlash uchun aksiyadorlik jamiyatlaridagi davlat ulushini yalpi sotish emas, balki bo'lib-bo'lib sotish amaliyotlariga o'tish muhim sanaladi. Bitta aksiya – bitta lot amaliyoti qo'llanilishi dividendlari yuqori bo'lgan davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarini xususiylashtirish yuqori samaradorlikka xizmat qilishini shu o'rinda alohida ta'kidlash lozim.

Lekin, yuqorida keltirilgan qonun hujjatlari ijrosi "barcha davlat korxonalarini hamda ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan to'liq ta'minlanmoqdamini?", degan savol tug'iladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 8-iyuldagi yalpi majlisidagi axborotlarga ko'ra "davlat ulushi mavjud bo'lgan 190 ta korxonadan tomonidan 2021-yilda 668 mlrd so'mdan ziyod dividendlar davlat byudjetiga undirilmagan. Soliq kodeksiga muvofiq davlat ulushi mavjud bo'lgan barcha korxonalar dividendlarining 5 foizi kerak. Lekin, 2021-yilda 691 ta korxonadan qariyb 57 mlrd so'm dividendlarga soliq davlat byudjetiga undirilmagan"<sup>17</sup>.

Bundan tashqari Qizilqumsement aksiyadorlik jamiyati, Agrobank aksiyadorlik tijorat banki kabilar tomonidan qonun talablaridan kelib chiqqan holda sof foydaning 50 foizdan ortig'ini dividendga yo'naltirish to'g'risida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlari qabul qilingan bo'lsada, keyinchalik bu qarorlar bekor qilingan. Natijada birinchidan qonunchilik talabi bajarilmagan bo'lsa, ikkinchidan aksiyadorlarning aksiyalar bozoriga bo'lgan ishonchi pasayishiga navbatdagi sabab bo'lgan. Bu kabi holatlar dividendlar amaliyotlari bilan bog'liq keng ko'lamli muammolar saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi.

Aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalidagi davlat ulushi xususiylashtirilayotganda korporativ veb-saytda axborot ochiqligi, ayniqsa rentabellik, erishilgan sof foyda taqsimoti va dividend to'lovlari haqidagi ma'lumotlar mavjudligi ham korporativ nufuzga va xususiylashtirishning bozor qoidalari asosida samarali kechishiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-iyuldagi 176-son "Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ veb-saytlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomga ko'ra "oxirgi uch yilda hisoblangan va to'langan dividendlar, shu

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-742-son Qonuni. 30.12.2021-yil. <https://lex.uz/docs/5801127>

<sup>17</sup> O'tgan yili 35 mingdan ortiq shartnoma davlat xaridlari portaliga joylanmagani ma'lum bo'ldi <https://kun.uz/24152060> . Saytga murojaat 06.10.2022-yil.

jumladan qarzdorlik miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar, aksiyadorlar tomonidan dividendlarni olish uchun bog'lanish ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlar korporativ veb-saytda majburiy joylashtirilishi kerak bo'lgan axborotlar toifasiga kiritilgan"<sup>18</sup>. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchiligiga ko'ra "oxirgi uch yilda muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, ularning chiqarilish hajmi va maqsadi, ular bo'yicha hisoblangan va emitent tomonidan to'langan dividendlar (foizlar) to'g'risidagi ma'lumotlar"<sup>19</sup> emitent oshkor qilishi shart bo'lgan axborotlar sirasiga kiradi. Bunda ko'ryapmizki dividendlar haqidagi faqat uch yillik ma'lumotlarni korporativ veb-saytga joylashtirish va oshkor etish bo'yicha talablar qo'yilgan. Lekin korporativ nufuzni oshirib borishga intilayotgan aksiyadorlik jamiyatlari faqat uch yillik dividendlar haqidagi ma'lumotlar bilan cheklanmasdan, 10-12 yillik ma'lumotlarni ham oshkor etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021-yil 19 fevraldagi 81-son qarori bilan "Davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarining rasmiy veb-saytlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomga asosan esa "hisoblangan va to'langan dividendlar (ajratmalar), shu jumladan, qarzdorlik miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar, aksiyadorlar (ishtirokchilar) tomonidan dividendlarni olish uchun bog'lanish ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlar davlat ishtirokidagi korxonalarining rasmiy veb-saytida majburiy joylashtirilishi kerak bo'lgan axborotlar va hisobotlar"<sup>20</sup> toifasiga kiritilgan. Bunda dividendlar haqida aynan necha yillik ma'lumotlar qo'yilishi haqida talablar qo'yilmagan. Tadqiqotlar xorijiy kompaniyalar tomonidan dividend tarixi tarzida faoliyat boshlagandan boshlab dividend to'lovlari haqida ma'lumotni tizimli joylab kelmoqda. Natijada yuz yillik dividend tarixi keltirilgan xorijiy kompaniyalar mavjudligini ta'kidlashimiz lozim.

Qashqadaryo texnologik transport aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalidagi 36 foizlik davlat ulushi<sup>21</sup> xususiylashtirish maqsadida Toshkent respublika fond birjasining NEGO savdo tizimiga qo'yilgan. Mazkur ulush birinchi marta savdoga qo'yilganligiga ikki yil bo'ldi. Lekin hamon sotilganicha yo'q. Bunda 36 foizlik ulush 24 487 271 237.00 (qariyb 24,5 mlrd.) so'm baholangan. Bunda bitta aksiya bahosi 1258 so'm. Korporativ axborotlar yagona portali ma'lumotlariga ko'ra Qashqadaryo texnologik transport aksiyadorlik jamiyati bir dona aksiyasi nominal qiymati 106 so'm<sup>22</sup>. Bundan anglash mumkinki, bir dona aksiya xususiylashtirish maqsadida qariyb 12 baravar yuqori baholangan. Potensial investor mavjud emasligi bois, 2022-yil 12-sentabr holatiga 50 foizlik chegirma berilgan. Baholash qanchalik asosli ekanligini aniqlash maqsadida aksiyadorlik jamiyatining investitsion jozibadorligiga e'tibor qaratamiz.

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2014 yil 2 iyuldagi 176-son qarori.

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'RQ-387-son Qonuni. 2015 yil 3 iyun.

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarining rasmiy veb-saytlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 19.02.2021-yildagi 81-son qaroridan.

<sup>21</sup> <https://nego.uzse.uz/ru/tenders/active>

<sup>22</sup> <https://openinfo.uz/ru/issuers/?page=4>



Korporativ veb sayt ishlayotganligi (06.10.2022-yil) bo'is Korporativ axborotlar yagona portali orqali 2017-2021-yillar yakunlari bo'yicha dividend to'lovlari tahliliga e'tibor qaratamiz (7-jadval).

Dividend nuqtai nazaridan Qashqadaryo texnologik transport aksiyadorlik jamiyatining faqatgina imtiyozli aksiyalari 25 foizlik qat'iy dividend tufayli jozibador. Lekin oddiy aksiyalari bo'yicha investitsion jozibador, deya olmaymiz. Korporativ veb saytda dividendlar tahlili bilan tanishish imkoni mavjud emas. Keltirilgan jihat xususiylashtirishga qo'yilgan aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligi naqadar past darajada ekanligiga birgina misol. Boshqa qator aksiyadorlik jamiyatlarida ham vaziyat bundan ortiq emas.

7-jadval

**Qashqadaryo texnologik transport aksiyadorlik jamiyati 2017-2021-yillar yakunlari bo'yicha dividendlar tahlili<sup>23</sup>**

Yillar	Oddiy aksiyalar		Imtiyozli aksiyalar	
	So'mda	Foizda	So'mda	Foizda
2017	-	-	26,5	25
2018	-	-	26,5	25
2019	-	-	26,5	25
2020	1,75	1,65	26,5	25
2021	3,56	3,35	26,5	25

Yuqorida dividendlarga doir ma'lumotlarni oshkor qilish borasida milliy va xalqaro tajribalar tadqiqi asosida qat'iy ravishda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari ham dividend tarixini e'lon qilib borish masalasiga alohida e'tibor qaratishi shart. Bu amaliyotga o'tish aksiyadorlik jamiyatlari uchun quyidagi afzalliklarni beradi:

birinchidan, korporativ nufuz shakllanadi va ortib boradi;

ikkinchidan, investitsion jozibadorlik yaxshilanadi va investorlar qiziqishi ortib boradi;

uchinchidan aksiyadorlik jamiyatlaridagi davlat ulushini xususiylashtirish jarayonlarining jadadlashuviga va samaradorligi ortishiga xizmat qiladi;

to'rtinchidan, eng asosiysi investorlar qaror qabul qilishlari axborot bilan oson ta'minlanadi va aksiyador bo'lish yoki bo'lmaslik imkoniyati borasida aniq moliyaviy qaror qabul qilish mumkin bo'ladi.

Fond bozori rivojlanishi, xususiylashtirishni samarali tashkil etish va samaradorligini har tomonlama oshirish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish kabilar bevosita aksiyadorlik jamiyatlarining dividend amaliyotlariga bevosita bog'liq ekanligini yuqorida ham qayta-qayta ta'kidlamoqdamiz. Bunda aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosatini mustaqil yuritishlari, aksiyadorlar bilan moliyaviy munosabatlarning tizimli va har ikkala tomon uchun manfaatli tarzda yuritilishi bilan birga davlat tomonidan soliqlar vositasida moliyaviy qo'llab-quvvatlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan "2022-yil 1-apreldan 2024-yil 31-dekabrga qadar:

<sup>23</sup>[https://openinfo.uz/ru/facts/?org\\_name=%22Qashqadaryo+texnologik+transport%22+aksiyadorlik+jamiyati&type=&date\\_from=&date\\_to=](https://openinfo.uz/ru/facts/?org_name=%22Qashqadaryo+texnologik+transport%22+aksiyadorlik+jamiyati&type=&date_from=&date_to=)

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti va norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning aksiyalar bo‘yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlari daromad solig‘idan ozod qilinadi;

O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarning aksiyalar bo‘yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlariga O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar singari foyda solig‘ining 5 foiz stavkasi tatbiq etiladi”<sup>24</sup>.

Dividendlar bo‘yicha mazkur qariyb 3 yillik imtiyoz bir qarashda fond bozori rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki 5 foizlik soliq amal qilishi ham aksiyador yoki investorning dividend tarzidagi daromadi pasayishiga olib kelardi. Bu imtiyoz ayni vaqtda birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar egalari daromadlari oshishiga xizmat qiladi. Oddiy aksiyalar egalari to‘lanadigan dividendlarga ham ma’lum darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatsada, minoritar aksiyadorlar uchun ijobiy yangilik sifatida qaralayotgani yo‘q. Chunki minoritar aksiyadorlar manfaatlari masalasi aksariyat aksiyadorlik jamiyatlarida, ayniqsa davlat ishtirokidagi jamiyatlarda e’tibordan chetda qolmoqda. Qachonki dividend ko‘rinishidagi daromadlar bozor daromadlilikidan yuqori bo‘lganda bunday soliq imtiyozlarining ahamiyati fond bozorining yanada rivojlanishida yuqori bo‘ladi. Joriy iqtisodiy vaziyatda respublikamizda omonat va depozitlar bo‘yicha o‘rtacha daromadlilik dividend tarzidagi o‘rtacha daromadlilikdan ancha yuqori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-sonli “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan quyidagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari IPO yoki SPO orqali ommaviy joylashtirilishi belgilangan (8-jadval)

## 8-jadval

### «Toshkent» RFBda aksiyalarining birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi o‘tkaziladigan aksiyadorlik jamiyatlari va ulardagi davlat ulushi<sup>25</sup>

Aksiyadorlik jamiyatining nomi	Joylashgan hududi	Davlat ulushi	Sotish shakli
«UzAuto Motors» AJ <sup>(1)</sup>	Andijon viloyati	100,0	IPO
«UzAuto Motors Powertrain» AJ <sup>(1)</sup>	Toshkent viloyati	100,0	IPO
«O‘zbekgeofizika» AJ	Toshkent viloyati	96,8	IPO
«O‘ztemiryo‘lkonteyner» AJ <sup>(1)</sup>	Toshkent shahri	90,0	IPO
«Dori-Darmon» AJ <sup>(2)</sup>	Toshkent shahri	36,10	IPO/SPO
«O‘zbekiston pochatasi» AJ <sup>(3)</sup>	Toshkent shahri	77,6	SPO
«Universal Sug‘urta» AJ	Toshkent shahri	14,48	SPO
«Alskom» AJ	Toshkent shahri	5,21	SPO

<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2022-yildagi “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-90-son qarori

<sup>25</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17 yanvardagi PQ-90-sonli “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qaroridan.

Keltirilgan jadval asosida ta'kidlashimiz lozimki, «Universal Sug'urta» AJ, «Alskom» AJ kabilarda davlatning ishtirokidan hech qanday ma'no yo'q. Chunki 25 foizdan past ulushga egalik qilish strategik moliyaviy qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsata olmaydi. Shuning uchun ulardagi 14,48 foizlik va 5,21 foizlik aksiya paketlarini bozorda ochiq savdoga qo'ygan ma'qul. Boshqa aksiyadorlik jamiyatlaridan esa davlat ulushi keskin yuqoriligi sharoitida investitsion jozibadorlik keskin past. Shu boisdan ularda IPO yoki SPO nuqtai nazaridan, davlat aksiya paketlarini xususiylashtirish nuqtai nazaridan aksiyadorlarga doimiy dividendlar to'lashga o'tishlari lozim. Bu jihat aksiya kursi o'sishiga, pirovard natijada esa aksiya kursi yuqorilishi hisobiga yuqori narxda sotilishiga imkon beradi.

Umuman aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini takomillashtirish bilan birga fond bozori infratuzilmasini ham rivojlantirib borish korporativ moliya va fond bozorining yagona ekotizim sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

## XULOSA

Aksiyadorlik jamiyatlaridan dividend siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi nazariy xulosalar, ilmiy takliflar va amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Aksiyadorlik jamiyatlari yuzaga kelishi va rivojlanishi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bunda aynan ilk aksiyadorlik jamiyatlari paydo bo'lgandan boshlab foydani adolatli taqsimlash va dividend siyosatini barcha aksiyadorlar uchun manfaatli tarzda yuritish biznesning aksiyadorlik shakli faol rivojlanishiga xizmat qilgan.

2. Biznes yuritishning aksiyadorlik shaklini tanlashdan bosh maqsad fond bozoridan arzon kapital jalb qilishdir. Mazkur maqsadga erishish uchun korporativ moliyani boshqarishda mustaqil moliyaviy qarorlar qabul qilishga o'tish hamda aksiyalar bozori infratuzilmasini rivojlantirib borishning uzviy holda amalga oshirilishi muhimdir. Bunda listingdan o'tish uchun dividendlar bilan bog'liq amaliyotlar bo'yicha qat'iy talablar o'rnatilishi ham aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosati takomillashuviga xizmat qiladi.

3. Bugungi kun jahon iqtisodiyotidagi keskin raqobat sharoitida moliyaviy munosabatlar doirasi ham, ko'lami ham kengayib boradi. Mazkur jihatni moliyaviy resurslar jalb qilish, xususan aksiyalar orqali kapital jalb qilish amaliyotlarida ham ko'rish mumkin. Natijada aksiyalar global miqyosda ochiq yoki ommaviy joylashtirilishi o'z-o'zidan aksiyadorlar bilan munosabatlarning, xususan dividend amaliyotlarining global doiraga o'tishini jadallashtirdi.

4. Iqtisodiyot, xususan aksiyadorlik jamiyatlari uchun dividendlar-ning ahamiyatli jihatlari ko'p tomonlamaligi bilan ajralib turadi. Samarali dividend amaliyotlari nafaqat xorijiy kapital, balki milliy kapital bozori doirasida ham yuqori miqdorda kapital jalb qilishga undovchi motivatsion reklama omili hisoblanadi. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlaridan oldingi va keyingi

davrlarda investorlar bilan munosabatlarda dividend amaliyotini birlamchi masalaga aylantira olish lozim.

5. Dividend siyosatini yuritish aksiyadorlik jamiyatlarining faoliya-ti davriga ham bog'liq. Yangi tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlari aksariyat holatlarda birdaniga agressiv dividend siyosati yurita olmaydilar. Dastlab konservativ dividend siyosati qo'llashlari, faoliyat to'liq yo'lga qo'yilib, moliyaviy barqarorlik ta'minlangachgina o'rtamiyona dividend siyosatiga o'tishlari, bozorda (moliya bozorida ham) raqobatdosh bo'lgach esa agressiv dividend siyosati qo'llashlari lozim.

6. Ustav kapitalida davlat ulushi yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend amaliyotlariga har doim ham ustuvor darajada e'tibor qaratilmaydi. Bu jihat davlat ishtirokidagi tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, Navoiy KMK va Olmaliq KMKdan tashqari aksariyat real sektor korxonalari dividendlari tahlili yaqqol namoyon bo'ladi. Xususiy aksiyadorlik jamiyatlarida esa korporativ nufuzni oshirib borish va fond bozorida arzon kapital jalb qilish imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida dividend amaliyotlariga jiddiy e'tibor qaratishadi.

7. Muntazam dividend to'lovlarini amalga oshirish hamda dividend tarixiga ega bo'lish xorijiy kompaniyalar investitsion jozibadorligi ta'minlanishida ijobiy ahamiyat kasb etmoqda. Milliy aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan ham doimiy ravishda dividendlar to'lab borish orqali dividend tarixini shakllantirish, bu haqda korporativ veb-saytda ma'lumotlarni yangilab borish investitsion jozibadorlik ta'minlanishi orqali milliy va xalqaro moliya bozorida qo'shimcha emissiyalar bo'yicha muvaffaqiyatga erishishlariga xizmat qiladi. Bunda aynan dividendlar aksiyadorlik jamiyatlarining investorlar bilan munosabati retrospektivasi va istiqbolini o'zida ko'rsatib beradi.

8. Ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari bilan birga xo'jalik boshqaruvi organlarining ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida ham sof foydaning kamida 50 foizini dividendga yo'naltirish tartibini joriy etish ma'muriy xoldinglar tarkibidagi sho'ba jamiyatlar dividend siyosatining ham takomillashuviga xizmat qiladi.

9. Aksiyadorlik jamiyatlaridagi davlat ulushini samarali xususiylashtirishga tayyorlash, IPO yoki SPOga chiqishi belgilangan davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirishga tayyorgarlik nuqtai nazaridan muntazam dividendlarga jiddiy e'tibor qaratish va istiqbolda ham dividendlar doimiy kun tartibida bo'lishini ta'minlash uchun ustavda dividendga yo'naltiriladigan sof foyda miqdorini belgilash lozim. Mazkur amaliyotga o'tish investitsion jozibadorlikka xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/10.12.2019.I.16.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ГАНИЕВ САРДОР МУРОДУЛЛА УГЛИ**

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ В  
АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ**

**08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**город Ташкент – 2023 год**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером № В2022.2.PhD/Iqt2195 в Высшей аттестационной комиссии.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Гофуров Достон Бохромович**  
доктор философии по экономическим наукам

**Официальные оппоненты:** **Карлибаева Рая Ходжабаевна**  
доктор экономических наук, профессор

**Хамдамов Омонулло Ньматуллаевич**  
доктор экономических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года в \_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, город Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-41-23; e-mail: [ilmiykengash@tsue.uz](mailto:ilmiykengash@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер №\_\_\_). Адрес: 100066, город Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-66; факс: (99871) 239-41-23; e-mail: [admin@tsue.uz](mailto:admin@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года  
(протокол реестра №\_\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года).

**М.П. Эшов**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**У.В. Гафуров**

Учёный секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**С.К. Худойкулов**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Капитализация крупных компаний мира давно уже превысила триллион долларов США. В частности, «по состоянию на начало декабря 2022 года капитализация компании Apple составила 2,332 трлн долларов США, компании Saudi Aramco – 1,887 трлн долларов США, компании Microsoft – 1,865 трлн долларов США, компании Alphabet (Google) – 1,289 трлн долларов США»<sup>26</sup>. Положительное влияние на это оказал факт того, что компании на протяжении нескольких десятилетий регулярно выплачивают дивиденды, что позволило им успешно разместить дополнительные эмиссии акций, а привлечение дешевых финансовых ресурсов через акции стало важным в финансировании инновационной деятельности. Кроме того, историю выплаты дивидендов, прогнозы дивидендов по компаниям и их влияние на стоимость акций анализируют ведущие мировые рейтинговые агентства, аудиторские и консалтинговые компании. Именно эти аспекты требуют регулярного совершенствования дивидендной политики в акционерных обществах на национальном и международном уровне.

В мировой практике дивидендная политика в акционерных обществах, анализ выплаты дивидендов, инвестиционная привлекательность, неотъемлемая связь между выплатой дивидендов и ценой акций, значение дивидендной политики для влияния миноритарных и мажоритарных акционеров на финансовое состояние являются вопросами, требующими постоянного внимания в научных исследованиях. В последние годы взаимосвязь независимых директоров и дивидендной политики, влияние гендерного равенства в совете директоров на дивидендную политику, уровень влияния форм выплаты дивидендов на ликвидность акций, влияние загрязнения окружающей среды на дивидендную политику, учет дивидендной политики в бизнес-стратегии, оценка уровня влияния трансграничных слияний и поглощений на дивидендную политику, проведение дивидендной политики по эффективной организации финансовых отношений с инвесторами после успешного глобального публичного размещения акций обуславливают необходимость проведения обширных исследований.

В Узбекистане в качестве приоритетной цели определено «в целях увеличения финансовых ресурсов в экономике в ближайшие 5 лет доведение оборота фондового рынка с 200 миллионов долларов США до 7 миллиардов». Для достижения этой цели ожидается масштабная приватизация и резкое увеличение доли частного сектора в банковских активах. Но для этого важен вопрос обеспечения в акционерных обществах инвестиционной привлекательности путем регулярных выплат дивидендов, однако в большинстве случаев этой процедурой пренебрегают. Хотя требование о том, чтобы на дивиденды направлялось не менее 50 процентов

---

<sup>26</sup> Составлено автором на основе данных сайта [www.apple.com](http://www.apple.com), [www.aramco.com](http://www.aramco.com), [www.microsoft.com](http://www.microsoft.com), [www.abc.xyz](http://www.abc.xyz).

чистой прибыли, получаемой годами хозяйственными обществами с долей государства в уставном капитале более 50 процентов определены в законах о государственном бюджете, факт наличия исключений для отдельных предприятий приводит к тому, что интересы миноритарных акционеров не обеспечиваются. Кроме того следует отметить, что национальные эмитенты не уделяют внимание вопросу эффективной и взаимовыгодной организации отношений с инвесторами посредством дивидендов после подготовки и практики публичного размещения акций (IPO, SPO). Проведение исследований и анализов для решения обозначенных проблем определяет актуальность темы диссертации.

